

2025-2026-o'quv yilida umumta'lim maktabi 5-sinf o'quvchilarining I chorakda informatika va axborot texnologiyalari fanidan o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun BSB topshiriqlari va mezonlari

I chorak 1-BSB (Demo)

Jami: [25 ball]

1-topshiriq.

Kompyuterda matnli hujjat yozish uchun quyidagi ishlar qaysi tartibda bajariladi?

- A) Matnni tahrirlash
- B) Word dasturini ochish
- C) Matnni yozish
- D) Hujjatni saqlash

Variantlardan to'g'ri ketma-ketlikni hosil qiling.

2-topshiriq.

Matnda quyidagi xatoliklar bor:

"Bu gun men informatika darsida matnlar bilanishlashni o'rgandim. dars zo'r o'tdi."

3 ta xatoni toping va xatolikni to'g'irlash uchun klaviaturada qanday amallar bajariladi?

3-topshiriq.

"Sichqonchasiz faylni qanday ochamiz?"

Savol:

Sichqoncha ishlamayapti. Faylni ochish uchun klaviaturada qanday tugmalar ketma-ket bosiladi?



4-topshiriq.

Save va **Save as** tugmalari qanday vazifani bajaradi? Ular qanday holatlarda bir xil, qanday holatlarda har xil vazifani bajaradi?

@organish_uzb

Test-Uz.Ru

5-topshiriq.

Agar bir xil mavzuga oid bir nechta fayllar bo'lsa, ularni nomlashda qanday qoida yoki tartibdan foydalansak, hujjatlar tartibli saqlanadi?

@organish_uzb

Test-uz.ru